



UDK: 94(575.1) "13/14":321

Shahobiddin O'ROZOV,
SamSI, Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: o'razovshahobiddin@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d R.Komilov taqrizi asosida

AMIR TEMUR FAOLIYATIDA DAVLATCHILIK G'OYASI VA AMALIYOTI BIRLIGI EVOLUTSIYASI

Annotatsiya

Maqolada xarizmatik legitimlik qobiliyatiga ega bo'lgan Amir Temurning milliy davlatchilik asoslarini yaratish va takomillashtirish faoliyatida mantiqiy ratsionallik tamoyilini mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek maqolada Markaziy Osiyoda XIV asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy beqarorlik Amir Temurdek xarizmatik legitimlik qobiliyatiga ega bo'lgan siyosiy rahbarning yetishib chiqishi va milliy davlatchilik g'oyasini xususiyati tarixiy asarlarning komparativistik tahlili asosida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, xarizma, xarizmatik legitimlik, mantiqiy ratsionallik, davlatchilik g'oyasi, milliy davlatchilik, komparativistik tahlil.

ЭВОЛЮЦИЯ ЕДИНСТВА ИДЕИ И ПРАКТИКИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УСТРОЙСТВА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТИМУРА

Аннотация

В статье научно обосновано сущность принципа логической рациональности в деятельности Амира Тимура, обладавшего харизматическими и легитимными способностями, в создании и совершенствовании основ национальной государственности. Также в статье рассматривается социально-политическая и правовая нестабильность в Центральной Азии в первой половине XIV века, появление политического лидера, обладавшего харизматическими и легитимными способностями, такого как Амир Тимур, и природа идеи национальной государственности на основе компаративического анализа исторических трудов.

Ключевые слова: Амир Тимур, харизма, харизматическая легитимность, логическая рациональность, идея государственности, национальная государственность, компаративический анализ.

THE EVOLUTION OF THE UNITY OF IDEAS AND PRACTICE IN STATE SYSTEMS IN THE WORK OF AMIR TIMUR

Annotation

The article provides a scientific substantiation of the essence of the principle of logical rationality in the activities of Amir Timur, who possessed charismatic and legitimate abilities, in the creation and improvement of the foundations of national statehood. The article also examines the socio-political and legal instability in Central Asia in the first half of the 14th century, the emergence of a political leader with charismatic and legitimate abilities, such as Amir Timur, and the nature of the idea of national statehood based on a comparative analysis of historical works.

Key words: Amir Timur, charisma, charismatic legitimacy, logical rationality, idea of statehood, national statehood, comparative analysis.

Kirish. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida geosiyosiy ziddiyatlar taranglashib, turli mintaqalarda qurolli to'qnashuvlar oqibatida mamlakatlar suverenitetiga jiddiy xavflar kuchaymoqda. Odatda bunday tahlikali vaziyatda har bir davlat fuqarolariga milliy davlatchilik an'alarining ilg'or yutuqlarini targ'ib etish orqali o'z milliylik xususiyatini saqlab qolishga harakat qiladi. Yurtimizning hozirgi rivojlanish jarayonida tarixiylikni manbalarga tayanib o'rganishga va shu asosda ma'naviy merosga nisbatan munosabatni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu maqolada xarizmatik legitimlik qobiliyati tufayli Amir Temur tomonidan jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishni ta'minlagan qonun ustuvorligi tamoyilini ishlab chiqilishi va ijtimoiy munosabatlarda to'liq joriy etilishi Movarounnahrni qudratli saltanatga aylinishi, fuqarolarning farovon turmush tarzini yuzaga kelishi hamda madaniy-ma'naviy yuksalishning falsafiy mohiyati yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temurning tarixiy-madaniy va ma'naviy merosiga oid masala doimo davlat rahbarlari, tarixshunos mutaxassislar, faylasuflarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, bu masalani o'rganishda xorijlik olimlardan F.Shlosser, H.Hukhem,

A.Shampdor, V.Furniye, L.Keren, J.Ru, X.Lemb, B.Mans va boshqalar Amir Temurning dunyo siyosatida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda tutgan o'rmini tadqiq etishga e'tibor qaratishgan. Ingliz olimasi Hilda Hukhem Amir Temur o'z yurtida davlatchilik va madaniyat an'alarining davomchisi bo'lganligini, turli sohalarida benazir asarlar yaratgan buyuk allomalar vatanidan yetishib chiqqanligini, mazkur allomalarning yirik asarlari bir necha yuz yillar davomida Yevropadagi Uyg'onish davriga katta ta'sir ko'rsatib, unga poydevor bo'lib xizmat qilganligini haqqoniy ravishda aytib o'tgan[1]. Jumladan, Lyusen Keren ko'plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligi, "rahbar bo'lishdek tug'ma, ammo aqlga sig'maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi" bo'lganini manbalardagi ma'lumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan [2-]. Amir Temurning hayoti, ma'naviy merosi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari bo'yicha O'zbekistonda I.Mo'minov, B.Ahmedov, N.Ahmedov, E.Rtveladze, U.Uvatov, J.Yaxshilikov, A.Ziyo, Z.Muqimov, A.Saidov, H.Dadaboyev, Sh.O'ljayeva va boshqalar o'z asarlarida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar.

Mazkur olimlar asarlarida Amir Temurning ratsional xarizmatik liderlik qobiliyati va ma'naviy merosiga oid yangi manbalarda keltirilgan ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari to'liq o'rganilmagan. Busiz Sohibqiron faoliyatidagi insonparvarlik g'oyalarning yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashga oid ijtimoiy-siyosiy va falsafiy jihatlari yaxlitlik kasb etmaydi. Hozirda jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglashda Amir Temur ma'naviy merosi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Amir Temurning ratsional xarizmatik liderlik qobiliyati va ma'naviy merosiga oid ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari ahamiyatini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, ayniqsa mustamlakachilik va parokandalik, siyosiy boshboshdoqlik hukm surgan vaziyatda jafokash xalq manfaatlarini himoya qiladigan yetakchilar – milliy qahramonlar siyosat maydoniga chiqadilar.

Markaziy Osiyoda siyosiy parokandalik, o'zboshimcha amirlar o'rtasidagi boshboshdoqlikka barham berish, jabrdiyda xalqini, vatandoshlarini mo'g'ullar zulmidan ozod etish hamda qisqa fursat ichida Markazlashgan buyuk bir imperiyani tashkil etish bu Amir Temurning xarizmatik liderlik qobiliyati bilan bog'liqdir. Biz quyida Sohibqironning xarizmatik liderlik qobiliyati va siyosiy yetakchilik faoliyatidagi ratsionallik tamoyilining mohiyatini yoritib berishga harakat qilamiz.

Tadqiqotchilar Amir Temur hukmdorlik faoliyatini ikki davrga bo'ladilar: Birinchi davri ona Vatanni bosqinchilardan ozod etish, mustaqil milliy davlatchilik asoslari yaratish. Ikkinchi davri mustaqil Vatani sarhadlarini daxlsizligini ta'minlash, mudofaa salohiyatini yuksaltirish va zafarli yurishlarini o'z ichiga oladi [3]. Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrni mo'g'ullar zulmidan ozod etib mustaqil davlatga asos soladi va 10 yil davomida saltanati hududini markazlashgan davlatga aylantirdi. Bu vazifalar osonlik bilan amalga oshmasligi aniq edi. Undagi xarizmatik qobiliyati tufayli bir-biri bilan murosasiz bo'lgan barcha beklarni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Mo'g'ullarning bir yarim asrlik istibdodidan xonavayron bo'lgan yurtida keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni boshlab yubordi. Amir Temur faoliyatida legitimlik, ya'ni qonun ustuvorligi tamoyili jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi va olib borilgan barcha islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minladi. Sohibqironning maqsadi sharoit taqozosi bilan vaqtinchalik hukumat yaratish emas, balki xavfsizligi ta'minlangan, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari mantiqiy ratsional tarzda yaratilgan istiqbolli davlatchilik asoslarini yaratish edi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda legitimlik asosiy tamoyil ekanligini Sohibqiron teran angelaydi.

Hukmronligining dastlabki davrlaridanoq davlat boshqaruvini ijtimoiy adolat hamda qonun ustuvorligi tamoyillari asosida boshqardi. Aynan mana shu tamoyil va Amir Temurdagi ratsional faoliyat qisqa muddat ichida Movarounnahrning yuksalishiga, iqtisodiy va harbiy salohiyatining o'sishiga olib keldi.

Amir Temur olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni natijasida mamlakatdagi farovonlikka guvoh bo'lgan Klavixo o'z taassurotlarini quyidagicha bayon etadi: "Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go'shti, (boshqa) har xil go'sht, qo'yingki, hamma narsaga boy mamlakatdir.

Nonni suv tekin desa bo'ladi, guruch esa hamma yoqni bosib ketgan edi. Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratomuz darajada mo'l-ko'l boy edi" [4]. Klavixo o'z kundaliklarida mamlakat qudratini e'tirof etish bilan birga aholining farovon turmush tarzini alohida ta'kidlab o'tadi. U mamlakatning qudratini va farovonligini faqat oziq-ovqat

mahsulotlarining serobligida emas balki ishlab chiqarish va savdo-sotiq va servis xizmatlarining yuqori darajaligi bilan belgilanishini quyidagicha bayon etadi: "Shaharning boyligi oziq-ovqatlarning mo'l va arzonligidagina emas. Bu yerda ko'plab ishlab chiqiladigan atlas, kimxob, sandal, tafta va tersenal singari shohi gazlamalar, mo'yna va shohidan tayyorlangan astarliklar, upa-elik va (boshqa) pardozi mollari, ziravor-dorivorlar, zarhal va ko'k-lojuvard bo'yoqlar, boshqa narsalar ham mo'l-ko'l edi. Podshoh shaharning shuhratini oshirish niyatida shu qadar ko'p sa'y-harakatlar qildiki, u qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo'ysundirgan bo'lsa, ularning hammasidan (hunarmand) odamlarni olib kelib, Samarqand va uning tevarak-atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Podshoh har xil kasb egalari to'plashga, ayniqsa, ko'p harakat qildi" [4]. Amir Temur mamlakat qudratini yuksaltirishga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan birga ma'naviy taraqqiyotga ham jiddiy e'tibor qaratadi. Musulmon Sharqida II Uyg'onish davri tamal toshini qo'ygan ham aynan Amir Temur edi. XIV asrda Markaziy Osiyoda islom dinini rivojlantirishda ham Amir Temurning xizmatlari katta edi. Temur va Temuriylar hukmronligi ulamolari tomonidan hanafiya mazhabi doirasida fiqh, aqid ilmlari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Tasavvufning yassaviya, naqshbandiya tariqatlari bo'yicha ko'plab asarlar yaratiladi.

Amir Temur mamlakatda savdo-sotiqni rivojlantirish masadida Buyuk Ipak Yo'lining xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratish bilan birga Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy integratsiya aloqalariga yo'l ochadi.

Amir Temur Fransiya Qirolli Sharl VI ga yo'llagan xatida shunday deydi: "Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtigizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang" [5].

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yagona savdo-iqtisodiy muhitining vujudga kelishi Temur va uning vorislari davrida milliy davlatchiligimizning yutug'i edi. Buyuk Ipak Yo'li xavfsizligini ta'minlanishi, xorijiy savdogarlar uchun to'xtash joylari, mehmonxonalar, ya'ni rabot va karvonsaroylar qurish shart-sharoitlari yaratilishiga davlat siyosati darajasida ahamiyat beriladi. Amir Temur mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlamasdan turib ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib bo'lmas edi. Sohibqiron tomonidan uyushtirilgan har bir yurishlar ham aynan mana shu maqsadga – ya'ni mamlakat xavfsizligini ta'minlashga bog'liq edi.

U o'z davlatini dunyo miqyosida tan olinishini istab dastavval davrning eng yuksak bilimiga asoslangan harbiy va davlatchilik sohasida muhim islohotlarni amalga oshira oldi, zamonasiga mos davlat boshqaruv tizimlarini ishlab chiqdi. Buning natijasida O'rta Osiyoda qariyb ikki asrga yaqin mo'g'ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo'rvonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqligiga barham berildi, o'lka xalqlarining o'z huquqlari, mustaqilligi qayta tiklandi. Iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy turg'unlik girdobidan olib chiqildi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o'z davrida nafaqat Sharqda balki, dunyo, ayniqsa Yevropada ham tan olingan edi.

Amir Temur o'zining milliy davlatchilik g'oyalarini amaliyotda ham namoyon eta oldi. Hatto Yevropa qirollari ham uni buyuk hukmdor ekanligini, saltanatini esa eng farovon va qudratli imperiya sifatida tan oladilar. Bunday natijaga esa Sohibqiron avvalo o'zidagi aql-tafakkur, matonat va shijoat orqali erishadi. Bu xususida Sohibqiron shunday deydi: "Saltanat to'nini kiygach, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim" [6].

Amir Temur faoliyati yoritib berilgan va tadqiqotchilar orasida keng tarqalgan asarlardan biri bu Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asari hisoblanadi. Asar

hajmi jihatidan kattaligi, voqea va hodisalarning batafsil bayon etilishi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Shuningdek bu asarning qimmatligi, muallifning Amir Temur bilan bevosita uchrashganligi va muloqot qilganligi bilan xarakterlanadi.

Ibn Arabshoh Amir Temur jang qilmasdan burun doim sulh taklif qilganligi va doim adolatli so'zga tolib bo'lganligini ham tinimsiz qayd etib boradi. Shu ma'noda Ibn Arabshoh rivoyatlarining ustki qatlami bir ma'noni ifodalasa, ostki qatlamlari – teranliklari boshqa bir ma'nolarni anglatadi.

Ibn Arabshoh Damashq uchun bo'lgan og'ir janglarning g'oyat qiziqarli tafsilotlariga to'xtalarkan, Misr qo'shinlarining chekinib, Damashq a'yonlari Temur qoshiga omonlik tilab kelganlari haqida yozadi va shunda Temur bilan mashhur arab allomasi Valiuddin Abdurahmon ibn Xaldun o'rtasida bo'lib o'tgan ajoyib suhbatni tasvirlaydi. Ibn Xaldun, chunonchi, Temurga qarata shunday deydi: "Men o'z huzurim bilan insoniyat podshohlarini musharraf etdim va o'z tarixlarim bilan ularning o'chib ketgan kunlarini barhayot qildim: arab podshohlaridan falon va fulonni ko'rdim, falon va fulon sultonlar huzurida bo'ldim, yerning mag'ribiyu mashriqini mushohada etdim, yerning har burchagida men uning amiriyu noibi bilan munosabatda bo'ldim. Lekin Tangridan minnatdormanki, u mening kunlarimni uzaytirdi va meni qaytadan tiriltirdi va muruvvat ko'rsatdiki, nihoyat, men haqiqiy podshoh kim ekanini ko'rib, saltanat shariatida to'g'ri siyratli maslakni raiyat etdim..." Shu gaplardan so'ng Temur Ibn Xaldun boshqalardan butunlay o'zgacha iqtidor va mavqega ega ekanligini anglaydi. O'rtalarida kishi sezmas yaqinlik paydo bo'ladi. Temur Ibn Xaldundan arab podsholari, ularning qanday davlat tutishlari va siyosat yuritishlari haqida hikoya qilishni so'raydi. Temur Ibn Xaldun rivoyatlaridan hayratga tushadi va ularga maftun bo'ladi. Ana shu yerda Ibn Arabshoh ham qarab turmaydi. Amir Temur haqida bitta ulug' javohirini o'rtaga tashlaydi. Shu yerda u yozadi: "Temur esa podshohlar va xalqlar siyratlarida bilimdon, Sharqu G'arb tarixining otasi va onasi edi" [7].

Ibn Arabshoh Temurning o'ta adolatli va haddan tashqari qattiqo'l podshoh bo'lganligini har qadamda ta'kidlab boradi. Mironshohning o'z otasiga qarshi bosh ko'tarishini, bunga sabab bo'lgan omillarni, Mironshohni chalg'itgan shaxslarni yozarkan, dong taratgan "bevafo zamonning mo'jizasi, musiqa va qo'shiqlar ilmida ustoz" Qutb al-Mosuliy haqida to'xtaladi. Va Mosuliy Mironshohni fasod ishlarga boshladi, deydi.

Keyin shu yerda muarrix Temur haqida juda qimmatli bir tafsilotni yozib ketadi: "Temur bo'lsa, ajib narsalardan ajablanmas, o'yin-kulgi va musiqa uni o'ziga maftun etmasdi" [7182].

Ibn Arabshoh asari sahifalarida Amir Temur o'z strategik salohiyati va undan ham yuksakroq dahosining qudrati bilan ko'zga tashlanadi. Temur qilgan har bir jangning sirli daqiqalari bor. U sir Xudoga va Temurning o'ziga ayon. Ibn Arabshoh dahoning ana shu sirlariga ham ko'z qirini tashlaydi. Garchi ularni tahlil qilib o'tirmasa-da, lekin albatta qayd etib o'tadi. Kutilmaganda yengilganday yoki qo'rqanday bo'lib orqaga chekinish, keyin kutilmagan tomondan dushmani tamomila o'rab olish, dushmani to'xtovsiz chalg'itish, bir dushman ustiga yurayotganday bo'lib boshqa dushmanga qarshi bostirib borish, zarbaning asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilash, yovga doim xavf solib turish, uni esankiratish, ba'zan esa o'z holiga tashlab qo'yish va boshqa ming turli harbiy mahorat sirlari Temurning turli janglarida namoyon bo'ladi.

Biroq Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan ko'p hollarda tanqidiy yondashadi va uning shaxsiyatini kamsitishga harakat qiladi. Asar ayniqsa Yevropa olimlari orasida keng tarqalgan bo'lib, ba'zi tadqiqotchilar uni obyektiv manba sifatida qabul qiladilar. Ammo yana bir arab olimi Muhammad Amin Shayxu aynan Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asaridagi ayrim fikrlariga raddiya sifatida o'zining "Buyuk Temurlang haqida haqiqat" asarini yaratdi.

Shayxu o'z asarida Amir Temur shaxsiyatiga oid salbiy fikrlar asossiz ekanligini bayon etadi. Ibn Arabshohning tanqidiy fikrlari bilan birga uning Amir Temur haqidagi ijobiy qarashlarini ham ta'kidlash zarur. Bizning fikrimizga ko'ra Muhammad Amin Shayxuning "Buyuk Temurlang haqida haqiqat" asari Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi" asariga qaraganda obyektiv va haqiqatdir. Biroq Shayxuning asari o'zbek tadqiqotchilariga tanish emas, asar o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saltanatining tashkil topishi tasodifiy bir hol bo'lmasdan, butun XIV asr ijtimoiy-siyosiy voqealari rivojlanishidagi tarixiy jarayonning shakllanishi hamda Markaziy Osiyoda xarizmatik liderning yetishib chiqishi edi. Xarizmatik liderning shaxsiy fazilatlariga haqida yuqoridagi tadqiqotchilarning hamma xulosalari yosh, navqiron, jasur, bilimli va iymonli Amir Temurda mujassam edi.

ADABIYOTLAR

1. Hookham H. Timurlaine the conqurer. - London, 1962; Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Хидоятова Г. –Т.: "Адолат", 1995. –С.320.
2. Kehren L. Tamerlan, le Seigneur de fer. - Neuchatel, 1978. –P.260; Keren L. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan tarj. va izohlar muallifi B.Ermatov. – Т.: "O'zbekiston", 2016. – Б.169-170.
Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: "Шарк", 2000. –Б.368.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат (1403-1406 йиллар). –Т.: "O'zbekiston", 2010. –Б.199.
4. Ахмедов Б. Амир Темур. –Т.: "Мерос", 1995, -Б.583-584.
5. Темур тузуклари. –Т.: "O'zbekiston", 2013. –Б.75.
6. Ибн Арабшох. Амир Темур тарихи. I жилд. –Т.: «Мехнат», 1992. –Б.227.